

## MUSIQA DARSLARIDA SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING MADANIY MEROSIDAN FOYDALANISH

**Boltayev Baxtiyor Rustamovich**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi" kafedrasida dotsenti (PhD)

**Mirzayeva Malohat Tohir qizi**

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida sharq mutaffakkirlarining madaniy merosidan foydalanishning shakl va metodlari yoritib berilgan. Shuningdek mutaffakkirlarning yoshlar axloq-odobi, tarbiyasiga doir qimmatli fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, madaniyat, qadriyat, milliy ruh, folklor, yevrosentrizm.

**Kirish.** Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Bundan o'n asr muqaddam yashab o'tgan donishmandlardan biri Unsur al-Ma'aliy Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday deydi: "Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysen. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan bo'lurman. Bilginki, xalqning rasm-odatini shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib, dunyodan biror narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishilariga qoldirib ketganlar".[7] Xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy hayotiy tajribasi, bosib o'tgan yo'li, shodliklari, qayg'usi, teran mazmunli pand-nasihatlari, ajdodlarimizning urf-odatlari, an'analari qadimiy meros sifatida saqlanib kelmoqda. O'zbek xalqining mana shunday yuksak qadriyatlari borki, biz yoshlarning tafakkurimizni yuksalishiga xizmat qiladi. Insoniyat turli davrlarni bosib o'tgan.

**4b hijMavzuga oid adabiyotlar tahlili** Mamlakatimizda ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor kuchayib, o'sib kelayotgan yosh avlodni shu qadriyatlar ruhida har tomonlama yetuk, ma'naviy yuksak, komil inson qilib tarbiyalash pedagogika fani oldiga turgan muhim vazifalardan biriga aylandi.

Musiqqa darslarida sharq mutaffakkirlarining madaniy merosidan foydalanish bo'yicha Abu Nasr Forobiy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, shoir va mutaffakkirlardan Kaykovus, Abdurahmon Sa'diy, Fitrat, Muhiddin qori Yoqubov, Shokir Sulaymon, Rajabzoda va boshqalarning asarlaridagi qimmatli fikrlar foydalanilgan.

Pedagog olimlar M.Abdujabbarova, S.Annamuratova, Ye.Balabekov, X.Ibragimov, M.Ismoilova, D.Kenjaeva, H.I.Nurmatov, Sh.Olimov, M.Mahmudov, K.Risqulova, M.Maxmudova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, Sh.Raemov, S.Romanova, D.Ro'zieva, U.Saidov B.Umarov, S.X.Fayzullina, N.Qiyomov, M.Quronov, Q.Quronboev, S.Yuldasheva, Z.Qosimova, G.Maxmutova, N.Shodiev, Sh.Qurbonov, A.Hasanov, va boshqalarning tadqiqotlarida tomonidan yaratilgan asarlarda sharq mutaffakkirlarining madaniy merosidan foydalanish borasida qimmatli fikrlar keltirilgan

**Tadqiqot metodologiyasi.** - Hozirda tamaddunlar natijasida kelib chiqqan, asosiy maxsuloti bilim va axborot bo'lgan davrda yashash mas'uliyati juda katta. Dastlab insonlar o'z rizqlarini faqat yerdan terib yashadilar, so'ngra sanoat texnologiyalari ularga yordam bera boshladi. Bugunga kelib esa millionlab insonlar axborot ishlab chiqarish va uni sotib kun ko'rish bilan ovora. XXI asrda axborotning sotuvchisi ham, xaridori ham ko'p. San'at ham shu axborotlar orasida xizmat qilib o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Shu o'rinda uning sotuvchisi kim va u qanday axborot sotayapti, degan haqli savol tug'iladi.

Shubhasiz, axborotning sotuvchisi yuksak texnologiyalarga ega kishilar, ular mahsulotni o'z manfaatlaridan kelib chiqib tarqatadilar. Ya'ni axborot egalari jamiyat a'zolariga turli xildagi ashyolar: oziq-ovqat, kiyim-kechak, reklama, seriallar, multfilmlar, san'at, musiqa asarlari orqali ta'sir etmoqdalar. Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi, birinchisi, kishilar ongiga birlamchi tahlilsiz ta'sir etish bo'lsa, ikkinchisi tahlil qilishga jalb etish yo'li orqali. Ijtimoiy targ'ibot asosan, yoshlarni, o'smirlarni nishonga oladi. Chunki aynan bu yoshdagilar ko'p axborotni tahlilsiz qabul qilaveradilar. Masalan, musiqada 60-70 yillar rok musiqasini tinglagan, sochini yelkasiga tushirgan yoshlar zamonaviy hisoblangan.

Bugun esa rep yoshlarga shunday kuchli ta'sir qilayaptiki, ularning yurish turishida, kiyinishida reppeplarning aksi namoyon. Pop musiqa qirolichasi bo'lmish Madonna dunyo yoshlariga qornini ochib kiyinishni o'rgatgan bo'lsa, rep qiroli Tupak tatuaj qilishni o'rgatdi... Bunday salbiy ta'sirlarni yana davom ettirish mumkin, lekin dunyo uzra "ommaviy madaniyat" shiddat bilan rivojlanib barchani ohanrabodek o'z domiga tortmoqda. "Ommaviy madaniyat" ning zarari haqida ko'p gapirish mumkin. Asosiysi, bunday yot g'oyalarga qarshi kurashish uchun yuksak ma'naviyat kerak bo'ladi.

Demak, faqatgina yuksak ma'naviyatimiz, o'zligimizni yo'qotmaslik bilan har qanday tahdidga bardoshli bo'la olishimiz va bu yo'lda hammamiz birlashib harakatda bo'lishimiz talab etiladi. Yosh avlodni milliy musiqa vositasi asosida ta'lim-tarbiyalash masalalari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero sobiq Sho'ro tuzumi davrida musiqa darslarining mohiyati, yo'nalishi «Yevrosentrizm» g'oyaviy uslubga asoslanganligi natijasida o'z milliy kuy ohanglarimizning ma'no-mazmuniga tushunmaydigan yosh avlodlar yetishib chiqa boshladi.

O'zbek yigit qizlari manqurtsifat parda ohanglarida qo'shiqlar kuylab milliy o'zligidan uzoqlasha boshladi. Ayniqsa, bizning milliy anhanalarimizga, axloq-odob qoidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan kliplar, turli tillardagi so'zlarni qo-rishtirib yoki talaffuzni ataylab buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ayrim yosh ijro-chilar o'zi uchun qandaydir yangicha uslub deb bilayotgani, menimcha, sanhatni, uning mohiyati va ahamiyatini tushunmaslikdan boshqa narsa emas. Madaniy jamoatchiligimiz, avvalambor musi-qashunos olimlar, ustoz sanhatkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli sanhat ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu ta-riqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz, deb o'ylayman.

- **Tahlil va natijalar.** Biz uchun axloqiy jihatdan nomahqul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko'rinishlarni bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim. Va ayni shu asosda bunday xurujlarning o'ta xavfli holat ekanini anglashimiz zarur.

Nega deganda, agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pa-sayib ketishi, uning mahnaviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shashmaqom» sin-gari milliy merosimizning noyob durdonalari-ni ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun sanhatkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tash-kil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning mahna-viy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa mada-niyatining mumtoz asarlari bilan birga, ular-ning kayfiyati va intilishlariga mos keladi-gan zamonaviy estrada sanhati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sha-roitlar yaratish, musiqiy ta'limni yanada ri-vojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslari jarayonida ham uzimizning milliy kuy-qo'shiqlarimizga, ijodkolariga, ushbu soha rivojlanishida hissa qo'shib, risolalar bitgan mutaffakirlar hayoti va ijodiga katta e'tibor qaratildi.[1]

Xususan, milliy ruhni o'zida in'ikos etgan ota-bobolarimizdan qolgan buyuk madaniy meros hozirda qadriyatlarimizni qayta baholanib, tiklanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, buyuk sharq mutafakkirlari milliy-ma'naviy merosini o'rganish jarayoni, ayni vaqtda, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashga olg'a qadam tashlayotgan yosh avlodning ijodiy va vatanparvarlik tuyg'ularini ravnaq toptiruvchi muhim tarbiyaviy qurol hamdir.

Sharq mutafakkirlarining madaniy merosidan foydalanishning uch xil shakli mavjud:

1. «Musiqqa madaniyati» darslari jarayonida;
2. Sinfdan tashqari va ommaviy musiqa mashg'ulotlari davomida;
3. Yakka tartibdagi musiqa mashg'ulotlari va ijodiy izlanishlar orqali.

«Musiqqa madaniyati» darslari – yoshlarga madaniy-ma'rifiy meros haqida berilayotgan tushunchalarning asosini tashkil etadi. Ayniqsa, yosh avlodni boshlang'ich sinflardayoq buyuk ajdodlarimiz va ularning

asarlari bilan tanishtirib borishi mustahkam poydevor qurilishining garovidir. Boshlang'ich sinf «Musiqqa madaniyati» darslari jarayonida buyuk siymolar haqida qo'shiqlar, musiqiy asarlar, rivoyatlar o'rganiladi. Ayniqsa, mustaqillikdan sung Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ulug'bek kabi buyuk siymolarimizning tavallud topgan kunlari, unutilmas sanalari keng nishonlanib ochiq tarbiyaviy soatlar, kechalar uyushtirilmogda. O'quvchi-yoshlar Sharqda uyg'onish davrida ijtimoiy madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berganligi haqida ma'lumotga ega bo'lishayapti. Ayniqsa, Amir Temur asos solgan saltanat davrida ijtimoiy hayotda yuksalish ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlanganligi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishdilar.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan Al-Buxoriy, At-Termiziy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Maxmud Qoshg'ariy, Yassaviy, Naqshbandiy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk daholar jamiyat tarixi va jahon madaniyati rivojiga benazir hissalarini qo'shganlar. Shuning uchun ularning madaniy ma'naviy merosini o'rganish hozirgi davr yoshlari, yosh avlod tarbiyasi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu buyuk mutafakkirlar turli fanlarga oid yaratgan asarlarida ma'naviy-madaniy qadriyatlarining ilmiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqdilar. Ular asrlar davomida ta'lim-tarbiya sohasida ajdodlarimiz orttirgan tajribalarning kuchli qudratga ega ekanligini va xalqchilligini o'z asarlarida ifodalaganlar.

«Musiqqa madaniyati» darslari ta'lim – tarbiyasida yosh avlodni estetik tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Bolalar tarbiyasi – bu izchil va asta-sekin amalga oshiriladigan tartibdan iboratdir. Musiqiy tarbiya ham bundan mustasno emas.

Ibn Sino bolalarni bitta-bitta alohida o'qitishdan ko'ra, jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va uning ustunligi haqida gapirib shunday yozadi: «O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar, g'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar.» [2]

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani, axloqiy tarbiyani hamda nafosat tarbiyasini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak. Eng muhim axloqiy boyluk, Ibn Sinoning ta'kidlashicha, adolatdir. Adolat muvozanat, o'rtalik tushunchalari bilan bog'liq. Axloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bo'lmasin, axloqiy talablarga tayanmasa, u odobsizlik va yomonlikka yo'l qo'yadi. Ibn Sino o'zining «Qush tili» asarida ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi, inson ustidan har qanday zo'ravonlikni inkor etadi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari go'zallik, nafosat haqidagi fikrlari bilan hamohang. Ibn Sinoning go'zallik, nafosat haqidagi fikrlari uning fors va arab tilida yozilgan she'rlarida, badiiy asarlarida, go'zallik, musiqa, san'at, she'riyat haqidagi falsafiy fikrlarida o'z ifodasini topgan.

Abu Rayxon Beruniy ilm-fanning buyuk xomiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanining gullab yashnashida, odamning baxti esa, uning bilim va ma'rifatida deb biladi. Yaratgan asarlarida har bir insonning o'z qalbining farmoyishiga ko'ra ezgulikka intilishi, sun'iy obro' shuxrat qozonish uchun muruvvat va shavqat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Beruniy olg'a surgan insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiya, xususidagi fikr-o'g'itlari mustaqillik davrida ham yoshlarni barkamol qilib yetishtirishga xizmat qiladi. Beruniy yaratgan xar bir ishning kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga e'tibor beradi.

Beruniy yozadi: «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qib berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli tuman bog'-rog'larda sayr qilganday bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularni hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. «Har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi» deb behuda aytilmagan.[5]

Forobiy ta'lim-tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi: Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar kasb hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l-qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilxomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi,

malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasb-intilishi, harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo'l majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa saxroi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o'z istaklariga so'z bilan xayratga kiradigan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki nazariy bilimlarni o'rganishga astoyidil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarini egallashga intilishi bo'lsa bunday odamlarni majbur etmaslikdan maqsad ularni fazilati egasi qilish va kasb-hunar axillariga aylantirishdir. Tarbiya berish usuli Forobiyning fikricha ikki turli bo'ladi. Avvalgi usul – san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarning ishlatiladigan usuli. Ikkinchi usul esa, majburiy ravishga tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalanishadi.[3]

Forobiy bilimdon, ma'rifatli, yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan bunday deydi: "Har kimki ilm-hikmatni o'rganman desa, uni yoshlikdan boshlasin sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odoblik bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini, ayamasi barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin. Bu fikrlardan Forobiyning ta'lim tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Uning e'tiqodiga bilim ma'rifat albatta, yaxshi, axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi. Olim, daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanadi, deydi".[3]

Tarbiya jarayoni, Forobiyning fikricha, tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turishi va m'alum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim, chunki har bir odam ham baxtini va narsa – hodisalarini o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Jomiyning fikricha, ilm inson uchun hayotiga yo'l ochuvchi va uni maqsadiga erishtiruvchi omildir. Ilm va hunarni yoshlikdan egallash kerak. Ilm insonga hamma narsani oson va puxta anglab olishga yordam beradi, mehnatni yengillashtiradi. Ma'naviyat, san'at, madaniyat esa inson kamolotining garovidir, uning madaniy salohiyatiga ta'sir etuvchi kuchdir. Har bir inson hayotda shod va baxtli bo'lishni istasa ana shu ikki ne'matdan bebahra qolmasligi lozim.

Jomiy o'zidan keyin turli fan, adabiyot, san'at, ma'rifatga doir o'lmas meros qoldiradi. U o'z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo'lda yozilgan «Bahoriston» asarida ta'lim-tarbiya, xususan musiqa tarbiyasi, estetik tarbiya, axloq tarbiyasiga doir qimmatli fikrlar bildiradi. Jomiy ilmlarni egallashda tajriba va ijodga alohida e'tibor beradi, hayotda foydalanilmagan ilmni, ijodiy asarni jonsiz, keraksiz deb hisoblaydi. U ta'lim oldiga yosh avlodni jamiyatga, odamlarga foydali xizmat qiladigan qilib yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. O'z ijodiy faoliyatida insonni ulug'lagan, musiqaning sehri kuchi, san'atning insoniylikning targ'ibotchisi sifatida kuylagan Abdurahmon Jomiyning yosh avlod, inson tarbiyasi haqida bayon etgan fikr, g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Uning insonni estetik tarbiyalashda qo'llaniladigan uslub va vositalari hozirgi davr uslubiy qo'llanmalarining poydevori va ilg'or pedagogik qarashlar taraqqiyotiga qo'shilgan qimmatli hissasidir. Bu vositalar, Jomiyning fikricha, kitob – ya'ni bilim manbai, hamda muallim – yosh avlodda bu sifatlarni hosil qiluvchi ustoz. U har bir muallim chuqur bilim, aql, ong, yaxshi axloqiy fazilatlar hamda iste'dod sohibi bo'lishi kerakligini ham aytadi. Aqliy va axloqiy jihatdan komil o'qituvchi har bir o'quvchida aqliy qobiliyatni rivoj toptira oladi, estetik zavqlanishni shakllantiradi.

- **Xulosa va takliflar**- Maktablarda o'qitish jarayonida Sharq mutafakkirlari ijodidan, ularning qimmatli fikrlaridan foydalanish hozirgi davrning eng ko'p muhokama qilinadigan masalalaridan hisoblanadi. Xalqimiz ma'naviy go'zalligi asrlar davomida yig'ilgan boy merosga ega. Shu bois buyuk mutafakkirlarimizning fan, adabiyot va san'at sohalarida jahon madaniyatiga qo'shgan hissalarini milliy istiqloq mafkurasining asosiy manbalaridan hisoblanadi. Milliy istiqloq mafkurasini kishilar ongiga juda erta, hatto oilada, bolalar bog'chalaridayoq singdirilmog'i, yoshlarni xalqimiz og'zaki ijodiyoti, pedagogik an'analari, qadrshunosligi xulosalari asosida tarbiyalash, axloqiy ma'rifat-estetik ruhda kamol toptirish har qachongidan ko'ra ham dolzarbroq muammolardan bo'lib qolmoqda. Bu sohadagi

asosiy muammolar, amalga oshirilishi nihoyatda zarur bo'lgan amaliy va nazariy ishlarning shakl va uslublari quyidagilardan iborat:

**Birinchi;** yosh avlodning milliy odob axloqiy tarbiyasida folklor, shuningdek, qadimiy qadriyatlarimizda ifodalangan milliy va umumbashariy xislat-fazilatlar asosida tarbiyalashga erishish.

**Ikkinchi;** xalqimizning milliy ma'naviy-madaniy merosi, ta'lim-tarbiyasi, milliy an'analari va san'atini ta'lim jarayonida uzluksizligini yanada barqarorlashtirish. Chunki, yoshlarga ilk ta'lim tarbiya beruvchi maskan bu boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim muassasalari bo'lib, ular o'z faoliyatlarini milliy lashtirmasalar so'z borayotgan sohada mustaqilligimiz talab qilgan darajada yutuqlarga erishish amri mahol.

**Uchinchi;** yangi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni voyaga yetishtirayotgan ekanmiz, uning ma'naviy, madaniy saviyasini oshirishimiz darkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, musiqiy, madaniy tarbiya, nafosat tarbiyasi insonlarni mehrlil, odobli, muloyim, har tomonlama mukammal bo'lib tarbiyalanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ma'naviy tarbiyada musiqiy tarbiyadan, uning ta'lim-tarbiyaviy tomonlaridan kundalik hayotimizda har qachongidan ham ko'proq foydalana bilish – davrimiz, istiqlohimiz talablaridandir.

Shunday qilib «Musiqqa madaniyati» darslari jarayonida madaniy-ma'naviy merosimizdan foydalanish hozirgi kun talablaridan biri hisoblanadi.

«Musiqqa madaniyati» darslari jarayonida sharq mutafakkirlarining madaniy merosidan foydalanishni yo'lga qo'yilishi – foydadan xoli bo'lmaydi degan fikrdamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch». Toshkent «Ma'naviyat» nashriyoti. 2008 yil 142 bet.
2. Abu Ali Ibn Sino. «Hikmatlar» -Toshkent.: «O'zbekiston» nashriyoti 1980 yil. 233 bet.
3. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» - Toshkent.: «Xalq merosi» nashriyoti – 1993 yil 193 bet.
4. Abdurahmon Jomiy «Bahoriston»- Toshkent.: «Yosh gvardiya» nashriyoti – 1979 yil 73 bet
5. Bo'riyev O. «Donishmandlar tarbiya xususida». - Toshkent.: «O'qituvchi» nashriyoti 1982 yil 75 bet.
6. Xayrullayev M. «Forobiy ruhi jarayonlar va ta'lim-tarbiya haqida» -Toshkent.: «O'qituvchi» nashriyoti -1997 yil 171 bet.
7. Kaykovus Unsurmaoliy. «Qobusnoma» - Toshkent.: «Istiqloq nashriyoti» 1994-yil